

## BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING O‘QISH SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA PIRLS DASTURINING AHAMIYATI

**Tursunaliyeva Shohida Erkinjon qizi**  
Andijon davlat pedagogika instituti magistranti

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini rivojlantirish, PIRLS xalqaro tadqiqotiga tayyorlash va ta’lim mazmunini rivojlantirishda xalqaro baholash dasturlarining ahamiyati haqida ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS, xalqaro tadqiqot, o‘qish savodxonligi

### ABSTRACT

This article provides information about the importance of international assessment programs in developing the reading literacy of primary school students, preparing them for the PIRLS international study, and developing the educational content.

**Keywords:** PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS, international research, reading literacy.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta’lim tizimi juda jadal tarzda rivojlanib bormoqda. Bundan asosiy maqsad maktab ta’lim tizimini yanada yaxshilash, har tomonlama yetuk salohiyatga ega yosh avlodni tarbiyalash, ularni insonparvarlik ruhida tarbiyalash va shu yo‘sinda ta’lim sifatini tubdan yaxshilash va yanada takomillashtirishdir. Shiddat bilan rivojlanayotgan davrda barcha sohalar singari ta’lim sohasida ham ulkan yangiliklar va islohotlar olib borilmoqda. Chunki, xorijiy mamlakatlar qatoriga qo’shilish uchun eng avvalo, ta’lim tizimini yanada yaxshilash darkor. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishni muhim shartlaridan biri chet el maktabi va pedagogikasi tajribalari o‘rganishdir.

Ta’lim sohasi tubdan yangilanayotgan O‘zbekistonda ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarda, PISA, PIRLS, TIMSS va TALIS dasturlarida ishtirok etib, xalqaro reytinglarda yuqori o‘ringa ega davlatlar tajribasini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Respublikamizda qo‘yilayotgan amaliy qadamlarga xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarning tashkil etilishi to‘g‘risida hukumat qarorining qabul qilinishi Ta’lim sohasidagi yutuqlarni baholash

xalqaro assotsiatsiyasidek (IEA-International Association for the Evaluation of Educational Achievement) nufuzli tashkilot bilan hamkorlik aloqalarining yo‘lga qo‘yilishini misol sifatida keltirish mumkin.

Respublika xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o‘rnatish, o‘quvchi-yoshlarning ilmiytadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (keyingi o‘rinlarda Ta’lim inspeksiyasi deb ataladi), Xalq ta’limi vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi hamda Moliya vazirligining:

a) quyidagi xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni (keyingi o‘rinlarda xalqaro tadqiqotlar deb ataladi) tashkil etish:

Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS) — boshlang‘ich 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini baholash uchun;

Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS) — 4 va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan o‘zlashtirish darajasini baholash uchun;

The Programme for International Student Assessment (PISA) — 15 yoshli o‘quvchilarining o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash uchun;

The Teaching and Learning International Survey (TALIS) — rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘qitish va ta’lim olish muhitini hamda o‘qituvchilarining ish sharoitlarini o‘rganish uchun;

b) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazini (keyingi o‘rinlarda Milliy markaz deb ataladi) tashkil etish to‘g‘risidagi takliflariga rozilik berilsin.

Mazkur qaror ijrosi joylarda tegishlicha amalga oshirilmoqda.

**PIRLS** tadqiqotlari doirasida turli ta’lim tizimiga ega bo‘lgan davlatlarning 4-sinf bitiruvchilarining o‘qish sifati va o‘qilgan matnni tushunish darjasini o‘rganiladi. Bu tadqiqotlarga 4-sinf o‘quvchilarining tanlanishi shu bilan e’tiborliki, aynan o‘qishning to‘rtinchchi yilda o‘quvchilar o‘qishning yuqori darajasiga ega bo‘lishi, ularning keyingi ta’limda bilimni egallash qobiliyatini shakllantirish va shu orqali hozirgi zamonga muvaffaqiyatli moslashuviga yordam beradi. Mazkur tadqiqot o‘quvchilarining og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, ularning mustaqil va ijodiy fikrlashini kengaytirishga yo‘naltirilgan. Bu loyihamar o‘quvchi-yoshlarning ijodiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari, egallagan bilimlarini kundalik hayotda qo‘llay

olish layoqatiga turli xil topshiriqlar orqali baho berish va keyinchalik esa bu ko‘nikmalarini o‘zi rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotda qatnashish orqali ta’lim sifati, o‘quvchilarining mакtabda olgan bilimlarini hayotda qo‘llay olish, mantiqiy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini baholashga erishiladi. Shu bilan birga, mamlakatdagi joriy etilgan o‘quv dasturlari va o‘qitish usullari, o‘quvchilarining bilimi va savodxonligini xorijiy mamlakatdagi tengdoshlari bilan solishtirish orqali, strategik va dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniyati ortadi.

Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS) – boshlang“ich 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini baholash uchun; Boshqacha qilib aytganda, boshlang“ich sinf o‘quvchilarining o‘qib tushunish ko‘nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma‘lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o‘qish va o‘qitishni yaxshilash uchun ta’lim sohasidagi davlat siyosatiga oid ma‘lumotlarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturidir

“Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi” kadrlari tarafidan ishlab chiqilgan metodik qo‘llanmada PIRLS tadqiqoti, uning o‘ziga xos xususiyatlari, nazorat-sinov materiallarining ishlab chiqilishi haqida umumiyligi ma‘lumotlar berilgan. Shu bilan birga, PIRLS tadqiqotining topshiriqlaridan, ya‘ni matnlar va savollaridan bir nechta namunalar hamda ularning baholash mezonlari keltirilgan. Shu bilan birgalikda PIRLS xalqaro tadqiqotiga tayyoragarlik korish uchun PIRLSda berilgan matnlarning har biriga alohida mashq daftarlari ishlab chiqilgan. Mazkur ish daftari o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini oshirish, o‘qiganlarini tahlil qilish, talqin qilish hamda to‘g‘ri xulosa chiqara olish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun qo‘srimcha didaktik material hisoblanadi. O‘quvchini PIRLSga tayyorlashda o‘qish darsi davomida darslikda berilgan har bir matn yuzasidan o‘quvchi o‘zi mustaqil ravishda ushbu matndan kelib chiqib savollar tuzish vazifasi qo‘yilsa, har bir bolaning berilgan matnni qay darajada o‘zlashtirganligini uning tuzgan savollari orqali bilib olish mumkin. Bunda o‘quvchining dunyoqarashi, mustaqil fikrashi va obrazli tafakkuri har bir dars davomida rivojlantirilib boriladi. Dars jarayonida bola to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri fikrini tinglab, to‘g‘ri xulosani hayotiy faktlar orqali chiqarishga o‘rganib boradi.

Xulosa shuki, o‘qituvchilarini o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash sohasidagi xalqaro loyihalarni amalga oshirishga yo‘naltirishda o‘quvchilarining yozma va nutq savodxonliklarini oshirish bo‘yicha ilg‘or milliy va xalqaro tajribalarni joriy etish, o‘quvchilar mustaqil ta’lim olishlari uchun elektron shakldagi ta’limni rivojlantirish, unda o‘qish fanidan xalqaro tadqiqotlar bo‘yicha savollar bazasini yaratish hamda boyitib borish, o‘quvchilarining o‘qish fanidan xalqaro tadqiqotlarga tayyoragarlik ko‘rish yuzasidan metodik tizimni yaratish, o‘quvchilarining o‘qish

fanidan xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko‘rish uchun mustaqil ta’limni joriy etish kabi vazifalarni amalga oshirish muhim hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5712-sonli farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 8-dekabrdagi 997-sonli qarori.
3. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash (Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo‘llanma) U.N.Tashkenbayevning umumiy tahriri ostida. – T.: Sharq, 2019. –91 b.
4. Ta’lim inspeksiyasi huzuridagi Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi saytlari.

E-mail: [markaz@tdi.uz](mailto:markaz@tdi.uz)    Veb-sayt: <http://www.markaz.tdi.uz/>    Telegram:  
<https://t.me/milliymarkaz>